
O'ttiz besh yil maktabda

Beshariq tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Sapura Nishonova 17 yildan buyon shu jamoaga rahbar, ustozning bevosita maktab bilan bog'liq mehnat faoliyati 35 yilni tashkil etadi. O'tgan yillar davomida tuman, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan turli ko'rik-tanlovlar g'olibi. Bugungi kunda 1222 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladigan bilim dargohidagi 95 nafar o'qituvchilarning 15 nafari bevosita Sapura Nishonovaning o'zi ustoz bo'lgan.

Bugungi kunda ushbu oila tumanda o'qituvchilar sulolasi sifatida katta hurmat-e'tiborga ega. Sapura Nishonovaning onasi, ayni paytda 80 yoshli tabarruk inson Enaxon aya Dehqonovani Beshariq tumanida ko'p yillar samarali mehnat qilgan o'qituvchi sifatida e'zozlashadi.

Hozirda Sapura ustozning qizi Gulchehra Ortiqova tumandagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida direktor o'rinbosari. O'g'li O'rmonjon Xolyigitov esa 13-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi. Umuman olganda, ayni paytda mazkur sulola vakillaridan o'n nafardan ziyodi shu kasbda faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsa, joriy yilning o'zida yana uch nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lishdi.

- O'qituvchilik - ijodkorlikdir! - deydi tajribali ustoz S. Nishonova. - Boisi boladagi iste'dodni kashf etish uchun o'qituvchida ijodkorlik qobiliyati bo'lishi zarur. Agar o'g'il-qizlarimizning iqtidorini o'z vaqtida aniq maqsad sari yo'naltira olsak, u kelajakda albatta jamiyatimiz uchun katta manfaat etkazadigan shaxs sifatida kamolga etadi.

Sapura muallim yillar mobaynida o'z xonadonida tashkil etilgan kutubxonada fondini boyitib bormoqda. Bolajon ustozning nazarida farzandlar uchun eng yaxshi sovg'a - kitobdir. Bugungi kunda mazkur kutubxonadan oila a'zolari unumli foydalanib kelishmoqda. Bu oilada kitobxonlik eng yaxshi an'anaga aylangan.

Aynan ijodiy yondashuv va jamoadagi samimiy muhit tufayli ta'lim dargohi bugungi kunda barcha sohalar bo'yicha tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maktablar o'rtasida eng oldingi qatorlarda e'tirof etiladi.

Fan o'qituvchilari Dilfuza Rahimova, Nasiba Qodirova, Davlatjon Xolbekovlarning o'quvchilari muntazam ravishda bilimlar bellashuvlari, fan olimpiadalarining tuman va viloyat bosqichlari g'olibi bo'lib kelishmoqda. Birgina o'tgan o'quv yilining o'zida tarix fanidan Asadbek G'aniev viloyatda ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Fizika fani bo'yicha Obid Boltaboev viloyat bosqichida kuchli oltilikka kirishiga muvaffaq bo'ldi.

1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan har yili mehnat faxriylarini yo'qlab, sovg'alar ulashish, maktabda katta bayram tadbiri uyushtirish ezgu an'anaga aylanib qolgan. Zero, ustozlarning samimiy mehri, farzandlar kelajagi yo'lidagi ta'lim-tarbiyasi hech qachon unutilmaydi.

Botir MADIYOROV.

Suratni Sherzod QORABOEV olgan.

2018-10-03 19:53:54